

**BO’LAJAK O’QITUVCHILAR O’QISH DARSLARIDA INNOVATSION YONDASHUV  
ASOSIDA BADIY VOSITALARNI O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

**Zulfiyaxon To’ychiyeva Abdulxamid qizi**

Qo’qon davlat universiteti

tayanch doktoranti (PhD) Qo’qon, O’zbekiston.

[zulfiyatoychiyeva40@gmail.com](mailto:zulfiyatoychiyeva40@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-7796-2328

tel: 94-552-50-69

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21320252>

**Annotatsiya:** Maqolada bo’ljak o’qituvchilarning o’qish darslarida badiiy vositalarni innovatsion yondashuv asosida o’qitish texnologiyasi yoritilgan. Bolalar adabiyotidagi badiiy obrazlar orqali o’quvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda badiiy matnlarni o’qitishda drammatizatsiya, rolli o’yinlar, muammoli vaziyatlar, klaster, obraz xaritasi, qadriyatlar spektri va raqamli ta’lim vositalari kabi innovatsion metodlarning samaradorligi asoslab berilgan. Mazkur yondashuvlar o’quvchilarning tanqidiy fikrlashi, estetik didi, axloqiy qarashlari hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi xulosa qilingan.

**Аннотация:** В статье раскрывается технология обучения художественным средствам на уроках чтения будущих педагогов на основе инновационного подхода. Проанализированы педагогические возможности формирования духовно-нравственных качеств учащихся посредством художественных образов детской литературы. Обоснована эффективность использования инновационных методов обучения, включая драматизацию, ролевые игры, проблемные ситуации, кластеры, карты персонажей, спектр ценностей и цифровые образовательные технологии. Сделан вывод о том, что применение данных методов способствует развитию критического мышления, эстетического вкуса, нравственных взглядов и коммуникативных компетенций обучающихся.

**Abstract** This article examines the technology of teaching literary devices in reading lessons for prospective teachers based on an innovative educational approach. It analyzes the pedagogical potential of children's literature in fostering students' moral and spiritual values through literary images. The study substantiates the effectiveness of innovative teaching methods, including dramatization, role-playing, problem-based learning, character mapping, value spectrum analysis, clustering techniques, and digital educational tools. The findings indicate that these approaches enhance students' critical thinking, aesthetic perception, moral awareness, and communicative competence, thereby improving the overall quality of reading instruction.

**Kalit so’zlar:** axloqiy tarbiya, ma’naviy qadriyat, adabiy obraz, o’qish darsi, bolalar adabiyoti, tahlil, rostgo’ylik, halollik, drammatizatsiya, muhokama.

**Ключевые слова:** нравственное воспитание, духовные ценности, литературный образ, урок чтения, детская литература, анализ, правдивость, честность, инсценировка, дискуссия.

**Keywords:** *moral education, spiritual value, literary image, reading lesson, children's literature, analysis, truthfulness, honesty, dramatization, discussion.*

**Kirish.** Bolalar adabiyoti inson qalbi va tafakkurini shakllantirishda, xususan, ma’naviy-axloqiy tarbiyani singdirishda eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda, ularni jamiyatda faol ishtirok eta oladigan, odob-axloq me’yorlariga amal qiluvchi, mehr-oqibatli, vatanparvar va mehnatsevar bo’lib voyaga yetishi uchun adabiyot beqiyos imkoniyatlarga ega. Chunki bolalar adabiyotining har bir asari faqatgina estetik zavq bag’ishlab qolmay, balki voqelikni badiiy anglash orqali axloqiy ideallarni shakllantiradi. O’quvchi badiiy matn vositasida o’ziga xos obrazlar dunyosiga kiradi, ularning xatti-harakatlari, qaror va tanlovlari orqali ijobiy yoki salbiy mezonlarni ajratib olishni o’rganadi. Bu esa mustahkam axloqiy pozitsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun tanlangan matnlar ularning aqliy, hissiy va axloqiy yetuklashuv darajasiga mos bo’lishi muhimdir. Har bir matn orqali tarbiyaviy g’oyani ilgari surish, o’quvchini fikrlashga, baholashga, xulosa chiqarishga o’rgatish metodik yondashuvlarni talab etadi. Bolalar adabiyotining ertak, hikoya, masal, she’r kabi janrlari orqali insoniy fazilatlar — rostgo’ylik, halollik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, do’stlik, bag’rikenglik singari qadriyatlar tarannum etiladi. Bu fazilatlar obrazlar faoliyati orqali yoritilgani bois, o’quvchi o’zini ushbu obraz o’rnida tasavvur qiladi, unga o’xshash yoki zid tomonlarni aniqlaydi, mustaqil baho beradi. Bu esa aynan axloqiy fikrlash ko’nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.<sup>9</sup>

**Adabiyotlar tahlili va metodlari.** O’qish darslarida tarbiyaviy g’oyalarni ajratish va tahlil qilish esa o’quvchilarning individual fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularning badiiy idrokini rivojlantirishda muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o’qituvchi asosiy obrazlar, voqealar, g’oya va muallif pozitsiyasi asosida o’quvchilarni tahlilga yetaklaydi. Misol uchun, ertakda uchraydigan ikki qahramon — biri rostgo’y, halol, mehnatkash; ikkinchisi — yalqov, yolg’onchi, hiylakor bo’lishi mumkin. O’qituvchi savol-javob, muhokama, voqeani qayta hikoya qilish, personajlarni taqqoslash, “sen bo’lsang nima qilarding?” kabi muammoli vaziyatlar yaratish orqali o’quvchini tarbiyaviy xulosani o’zi mustaqil shakllantirishga undaydi.

Tarbiyaviy g’oyalarni tahlil qilishda “tushunish – sharhlash – baholash – xulosa chiqarish” kabi bosqichli metodik yondashuvlar qo’llaniladi. Bunda o’quvchi avvalo matnni tushunadi, so’ng obrazlar orqali nima demoqchi bo’lingani haqida fikr yuritadi, keyin o’z munosabatini bildiradi va eng so’ngida ushbu matndan qanday saboq olish mumkinligini izohlaydi. Bu usul o’quvchini faqat voqeani qayta so’zlashdan uzoqlashtirib, unga tanqidiy-estetik qarash bilan yondashishga imkon beradi. Ayniqsa, boshlang’ich sinfda “Senga bu qahramon yoqdimi? Nega?”, “U qanday fazilatga ega?”, “Sen bu vaziyatda nima qilgan bo’larding?” kabi ochiq savollar orqali bola tafakkuriga yo’naltirilgan tahliliy muhit yaratiladi.

**Natijalar va muhokama.** Bolalar adabiyotidagi obrazlar orqali shakllangan tarbiyaviy g’oyalar ko’pincha umumqadriyatlar asosiga quriladi. Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatni asrash, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, haqiqat uchun kurashish kabi g’oyalar har bir xalqning madaniy merosida ustuvor mavzulardan biridir. Shuning uchun o’quvchi ushbu qadriyatlar asosida axloqiy tamoyillarni singdiradi, o’z

<sup>9</sup> Jo’rayeva, G. (2021). Bolalar hajviy she’riyati–ma’rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).

hayotida qo'llashga harakat qiladi. Bu esa bolalar adabiyotining real hayot bilan bevosita bog'langanligini, uning faqat estetik vosita emas, balki hayotiy-ma'naviy dastur ekanligini ko'rsatadi.<sup>10</sup>

Zamonaviy metodik yondashuvlarda bolalar adabiyotidagi tarbiyaviy g'oyalarni ajratish uchun klaster, tushuncha xaritasi, personaj xaritasi, sabab-oqibat zanjiri, qadriyatlar spektri kabi innovatsion metodlar qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar orqali har bir o'quvchi matnni chuqur tahlil qiladi, o'z hissiy-estetik munosabatini mustaqil ifodalashga o'rganadi. Misol uchun, “masal sizga nima o'rgatdi?”, “she'rda qanday hislar ifodalangan?”, “bu hikoyadan qanday xulosa oldingiz?” kabi savollar orqali o'quvchi tarbiyaviy g'oyani o'z hayotiy tajribasi bilan bog'laydi. Bolalar adabiyoti o'qish darslarining ma'naviy-axloqiy asosini tashkil etuvchi qudratli vositadir. Uni to'g'ri tanlash, samarali metodik yondashuvlar bilan o'qitish, tarbiyaviy g'oyalarni ajratish va chuqur tahlil qilish orqali o'quvchilarni axloqiy jihatdan yetuk, estetik didga ega, fikrlovchi va mehrli inson qilib tarbiyalash mumkin. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Shunday ekan, o'qituvchilar bolalar adabiyotini nafaqat o'quv predmeti sifatida, balki ma'naviy-ma'rifiy vosita sifatida baholab, uni o'qitishning nozik, ta'sirchan va estetik jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Adabiy obrazlar orqali tarbiyaviy ta'sirga erishish texnologiyalari va o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda innovatsion metodlar bugungi ta'lim jarayonining dolzarb va strategik masalalaridandir. Chunki ta'lim jarayonida axloqiy dunyoqarashga ega, madaniyatli, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his qiluvchi avlodni shakllantirish bugungi jamiyatning asosiy ijtimoiy buyurtmasidir. Bu vazifani samarali bajarish esa, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda adabiy obrazlar vositasida axloqiy-me'yoriy bilimlarni singdirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Adabiy obrazlar bolalar uchun nafaqat badiiy estetik ifoda vositasi, balki tarbiyaviy model, ruhiy va axloqiy me'yorlarni tushunish, tan olish va ularni hayotiy holatlarga tadbqiq etish uchun yo'naltiruvchi kuchdir. Obrazlar orqali bola o'z hayotiy tajribasini boyitadi, qahramonlar taqdiridan saboq chiqaradi, ularning xatti-harakatlari, tanlovlari va qarorlari ustida fikr yuritadi. Bu esa unga yaxshi va yomon, rost va yolg'on, adolat va haqsizlik kabi mezonlarni anglash imkonini beradi.<sup>11</sup>

Tarbiyaviy ta'sirga erishish texnologiyalari, ayniqsa, o'qish darslarida adabiy obrazlar bilan ishlashda bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda o'quvchi obraz bilan tanishtiriladi, uning tashqi va ichki xususiyatlari aniqlanadi. Keyingi bosqichda esa obrazning xatti-harakati, qarorlari va ijtimoiy munosabatlari tahlil qilinadi. Nihoyat, uchinchi bosqichda o'quvchi obrazning ijobiy yoki salbiy tomonlarini baholaydi, o'z shaxsiy qarashini bildiradi va tarbiyaviy xulosa chiqaradi. Bu jarayonda muammoli savollar, rolli o'yinlar, dramatizatsiya, obraz xaritasi tuzish, "agar sen bo'lganingda..." kabi metodlar qo'llanadi. Ayniqsa, voqeani qayta hikoya qilish, alternativ yakun tuzish, obrazlar o'rtasida muloqot tashkil etish kabi faol metodlar orqali o'quvchi obrazni chuqurroq anglaydi.

Innovatsion metodlar esa bolalar tafakkuriga yanada yaqin, ularning qiziqishlariga mos va texnologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashgan shakllarda axloqiy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Masalan, "axloqiy tanlov" metodi orqali o'quvchilarga bir nechta

<sup>10</sup> Qizi, S. A. B., & Arifovna, K. N. (2025). XX asr ingliz bolalar adabiyotining asosiy janr xususiyatlari. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(2), 207-211.

<sup>11</sup> Begmatova, N. (2025). Bolalar uchun mo'ljallangan matnlarning lingvistik xususiyatlari va ularning tarjima-dagi aks etishi. *Академические исследования в современной науке*, 4(17), 18-21.

voqea yoki qaror variantlari taqdim etiladi va ulardan eng to’g’ri, adolatli yoki insoniy jihatdan maqbul bo’lganini tanlash so’raladi. Bu jarayonda nafaqat axloqiy baholash, balki tanqidiy va reflektiv fikrlash ham shakllanadi. "Qadriyatlar spektri" texnologiyasi orqali esa o’quvchilarga bir nechta insoniy qadriyatlar (rostgo’ylik, do’stlik, mehnatsevarlik, sadoqat, mehr-shafqat va boshqalar) beriladi va ular bu qadriyatlarni matn qahramonlari faoliyati bilan taqqoslaydi.

Yana bir samarali innovatsion metod — bu “rolga kirish” texnikasi bo’lib, bunda o’quvchi adabiy obraz o’rniga kirib, o’zini aynan o’sha qahramon sifatida tutadi, uning his-tuyg’ularini his etadi, qiyin vaziyatlarda qanday yo’l tutganini anglashga urinadi. Bu metod orqali bola empatiya — ya’ni, boshqalarning ichki kechinmalarini his etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa faqat axloqiy ongini emas, balki ijtimoiy intellekt va kommunikativ kompetensiyani ham shakllantiradi.

**Xulosa.** Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan digital metodlar — raqamli hikoyalar, animatsion personajlar bilan o’yinli o’qish, interaktiv viktorinalar ham o’quvchilarda axloqiy qadriyatlarni yanada faolroq va tezroq shakllantiradi. Masalan, adabiy matn asosida tayyorlangan QR-kodli video, podkast yoki mini-serial o’quvchini adabiy obraz bilan hissiy jihatdan bog’laydi va uning mazmunini anglashga chuqur motivatsiya uyg’otadi. Bu esa, o’z navbatida, obraz orqali berilgan g’oyaning, ya’ni axloqiy tarbiyaning ta’sirchanligini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risidagi Qonuni. – Toshkent: Sharq, 1998. – 48 b.
2. Qizi, S. A. B., & Arifovna, K. N. (2025). XX asr ingliz bolalar adabiyotining asosiy janr xususiyatlari. *Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 44(2), 207-211.
3. Begmatova, N. (2025). Bolalar uchun mo’ljallangan matnlarning lingvistik xususiyatlari va ularning tarjimaadagi aks etishi. *Академические исследования в современной науке*, 4(17), 18-21.
4. Jo’rayeva, G. (2021). Bolalar hajviy she’riyati–ma’rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
5. O’zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risidagi Qonuni.
6. O’zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni. –Xalq so’zi. 1995-yil, 29- dekabr.
7. Filologiya fanlari blok moduli bo’yicha umumiy o’rta ta’limning o’quv dasturi (1 sinf).Toshkent, 2018. 5 b.
8. Folklor – G’afur G’ulom – o’zbek bolalar she’riyati // O’zbek tili va adabiyoti, 2013, 3-son, B.23-29.
9. To’ychiyeva Z. O’qish kitobi adiblari //– Bayoz Toshkent.2020.
10. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi boshlang’ich ta’lim ona tili, o’qish, matematika tabiat. Toshkent, 2017 – B.14-15.
11. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, Toshkent, 2006 – B.3.